



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025 yil 5-mart, № 45 (8940)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



XORIJIIY INVESTITSIYALARNI O'ZLASHTIRISH REJALARI VA QO'SHIMCHA EKSPORT IMKONIYATLARI KO'RIB CHIQLDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 4 mart kuni kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash, investitsiya va eksport ko'rsatkichlari bo'yicha hisobot bilan tanishdi.

Yil boshidan aholi bandligini ta'minlash bo'yicha yangi tizim joriy qilingan edi. 208 ta tuman va shahar hokimlari hamda banklar rahbarlari o'rtasida bu borada hamkorlik shartnomalari imzolandi. Bank filiallarida mahallabay ishlash bo'yicha tashkil etilib, ularga mahalla bankirlari tayinlandi.

Bularning natijasida yanvar oyida 239 ming, fevral oyida 480 ming aholi daromadli mehnatga jalb qilindi. Yil boshidan kichik va o'rta biznesga jami 14 trillion so'm kredit yo'naltirildi. Jumladan, tadbirkorlik dasturlari doirasida 2 trillion so'm ajratildi.

Odamlarga daromad topish imkoniyatlari, tayyor biznes loyihalari tanishtirilib, ularni amalga oshirish yo'llari o'rgatilmog'ida. Ishli bo'lganlar soliq qo'mitasida tasdiqlanmoqda. Mas'ullarga yuklatilgan vazifalar ijrosi tahlil qilib borilayotir.

Yig'ilishda ushbu tahlillar haqida axborot berildi.

Aholi bandligini ta'minlashda Jizzax, Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarida hamda "O'zmilliybank", "Asakabank", "Mikrokreditbank" va "Biznesni rivojlantirish banki" loyihalarida yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan.

Lekin Sirdaryo viloyati, 24 ta tuman va shaharda natijalar yuqori emas. Shu bois vazifalar ijrosida sustkashlikka yo'l qo'ygan 30 nafar rahbarga nisbatan choralar ko'rilgan.

To'plangan tajribadan kelib chiqib, kelgusi oylarda natijadorlikni oshirish, ishsizlarni kasbga va foydali mehnatga yo'naltirish zarurligi ta'kidlandi. Hozirgi bahor mavsumida tomorqa va ijara yerlarda to'liq ekin

ekish, buni "online-mahalla.uz" platformasi orqali kuzatib borish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

O'tgan ikki oyda investitsiya va eksport ko'rsatkichlari ham ijobiy bo'ldi. Yil boshidan beri 6 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi. Qiymati 574 million dollarlik 1 ming 100 ta o'rta va kichik loyiha bajarilib, 17 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi.

2,8 milliard dollarlik tovar va xizmatlar eksport qilindi. Ayniqsa, zargarlik mahsulotlari eksporti o'tgan yildagiga nisbatan 7 barobar, kimyoda 1,7 marta, elektrotexnika va oziq-ovqatda 1,2 karra, turizm xizmatlari 1,6 barobar o'sgan.

132 ta korxonada xalqaro standartlar joriy qilingan. 521 ta korxonada ilk bor tashqi bozorga chiqib, birgina fevral oyida qo'shimcha 183 million dollar eksport qilgan.

Yig'ilishda ayrim tarmoq va hududlarda investitsiya ko'rsatkichlari past bo'lgani qayd etilib, buning sabablari va yechimlari muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinbosari etib tayinlangan Dilmurod Qosimov tanishtirildi. U tadbirkorlar va investorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoyasi sohasidagi nazorat uchun mas'ul bo'ladi. Endilikda prokuratura idoralari bu borada qulay huquqiy muhit yaratishda muhim o'rin tutadi.

Mutasaddilar birinchi chorak yakuni bilan 8 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish rejalari, qo'shimcha eksport imkoniyatlari yuzasidan axborot berdi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

8 MART — XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI MUNOSABATI BILAN MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda mo'tabar ayol zotiga munosib ehtirom ko'rsatish, xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzini oshirish, shuningdek, o'zining ko'p yillik samarali mehnati, yuqori kasbiy malakasi va mahorati bilan yurtimizdagi tub islohotlarda faol qatnashib, Yangi O'zbekistonda barpo etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo'lida alohida tashabbus va ibrat ko'rsatib kelayotgan, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, farzandlarimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga katta hissa qo'shayotgan quyidagi opa-singillarimiz mukofotlanishi:

«Do'stlik» ordeni bilan

Abilova Aygul Tursunovna — Konimex tumani obodonlashtirish boshqarmasi farroshi, Navoiy viloyati

Gaziyeva Lyubov Borisovna — O'zbekiston milliy metrologiya instituti) davlat muassasasi bo'lim mutaxassisi

Gaibnazarova Nodira Baxodirjanovna — O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining mehnatni muhofaza qilish bo'limi mudiri

Jamolova Dilnoza Muyidinovna — O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktorining o'rinbosari

Kozixonova Orziqul Muyidinovna — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi

Kunnazarova Bibisara Kalmuratovna — «Hunarmand» uyushmasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi a'zosi, o'tov jihazlari to'quvchisi

Mamadiorova Nasibali Ablakulovna — Bulung'ur tumani hokimining o'rinbosari — oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i, Samarqand viloyati

Mambetniyozova Gulzar Sherniyozovna — Chimboy tumani hokimining o'rinbosari — oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Minayeva Gulnara Akromovna — «O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyatining «O'zvagontamir» aksiyadorlik jamiyati Samarqand vagon deposi sex katta ustasi, Samarqand viloyati

Mirzayeva Xabiba Babayevna — Oqoltin tumanidagi «Oltin meros» folklor ansambli a'zosi, «E'zozli ayollar» sport to'garagi rahbari, Sirdaryo viloyati

Musurmanova Aynisa — O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti direktorining o'rinbosari

Rabotneva Larisa Aleksandrovna — «Uzbekistan Airways Technics» mas'uliyati cheklangan jamiyatining g'arbda ishlab chiqarilgan samolyotlar sifatini ta'minlash xizmati muhandisi

Salixova Mavlida Nazrullayevna — Buxoro viloyati «Oydin Nur» oilani ijtimoiy himoyalash markazi eksperti

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasining QONUNI

«Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2025 yil 14 yanvarda qabul qilingan
Senat tomonidan 2025 yil 20 fevralda ma'qullangan

Keyingi yillarda mamlakatimizda aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanishini yengillashtirish, bank xizmatlari sifatini oshirish va ko'lamini kengaytirish, kreditlar berish tartib-taomillarini soddalashtirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga fuqarolarning nomiga ularning xabariz kreditlarni berish va taqdim etilgan pul mablag'larini fribgarlik usullarini qo'llagan holda o'zlashtirish hollarining o'sib borishi fuqarolarning kreditlash sohasidagi manfaatlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlari takomillashtirilishini talab etmoqda.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston — Gruziya:

AZALIY ALOQALAR VA HAMKORLIKNING YANGI ISTIQBOLLARI

Oliy Majlis Senatida Gruziya Bosh vaziri Irakliy Kobaxidze rahbarligidagi delegatsiya a'zolari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuv avvalida Senat Raisi Tanzila Norboeva martabali mehmonning mamlakatimizga tashrifi ikki davlat o'rtasida qaror topgan yaqin hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda yangi sahifa ochish uchun katta imkoniyat ekanini ta'kidladi.

O'zbekiston va Gruziya xalqlarining milliy urf-odatlarida uyg'unlik kuzatiladi, ikki xalq ham mehmondo'st va o'z yurtiga sadoqat kabi xususiyatlarga ega. So'nggi yillarda do'stlik rishtalari qadimiy an'analarga mos ravishda rivojlanmoqda. Ikki millat vakillarini o'zaro ishonch tuyg'ulari bog'lab turibdi.

Toshkentda "O'zbekiston — Gruziya" do'stlik jamiyati tuzilgani va "Megobroba" madaniy markazi faoliyat yuritishi ham fikrimiz tasdiq'idir.

Suhbat chog'ida mehmonlarga "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar, uning doirasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Nafaqat hukumatlararo, balki parlamentlararo munosabatlarni mustahkamlash, qonunchilikni takomillashtirishda tajriba almashish, ishga solinmagan imkoniyatlardan oqilona foydalanish

o'zaro aloqalarning izchilligini ta'minlaydi, deyildi uchrashuvda.

I. Kobaxidze Gruziya O'zbekiston bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor ekanini bildirdi va yurtimizda barcha sohada qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni yuqori baholadi, davlatimiz rahbari olib borayotgan islohotlarning hayotda o'z ifodasini topayotganini ta'kidladi.

Shuningdek, muloqotda turizm, iqtisodiyot, elektronika, agrar va transport kommunikatsiyasi singari ustuvor yo'nalishlarda aloqalarni mustahkamlash masalalariga e'tibor qaratildi.

Uchrashuvda ikki mamlakat o'rtasida istiqbolli loyihalarni amalga oshirish yuzasidan o'zaro fikr almashildi, xususan, hamkorlikning bugungi holatini tahlil etib, yangi rejalarni belgilab olish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi.

Gruziya parlamenti rahbarlari yurtimizda bo'lib o'tadigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida qatnashishga katta qiziqish bildirayotgani qayd etildi, kelgusida ham xalqaro maydonlarda o'zaro qo'llab-quvvatlash amaliyotini mustahkamlashga kelishib olindi.

Uchrashuv

GRUZIYA HUKUMATI RAHBARI PARLAMENT FAOLIYATI BILAN TANISHDI

Shu yilning 4 mart kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilovning Gruziya Bosh vaziri Irakliy Kobaxidze bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqot avvalida mehmonlarga yangi tahrirdagi Konstitutsiya va "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, Qonunchilik palatasining tarkibiy tuzilishi, uning qonun ijodkorligi yo'nalishidagi faoliyati, palata qo'mitalari, komissiyalari hamda deputatlarining asosiy vazifalari haqida batafsil ma'lumot berildi.

O'z navbatida, I. Kobaxidze samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning so'nggi yillarda tobora kengayishi va mustahkamlanishi, turli sohalardagi serqirra hamkorlikning rivojlanishida kuzatilayotgan barqaror ijobiy tendensiyani mamnuniyat bilan ta'kidladi.

Shuningdek, keyingi yillarda O'zbekistonda barcha sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yuqori baholadi. Ayniqsa, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan mintaqaviy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan konstruktiv va ochiq tashqi siyosat tahsinga sazovorligini bildirdi.

Uchrashuvda tomonlar ikki mamlakat o'rtasidagi parlamentlararo aloqalar to'xtalar ekan, hamkorlikni yanada kengaytirishda deputatlar o'rtasidagi aloqalarni yanada jadalashtirish muhim o'rin tutishini ta'kidlashdi.

Joriy yil 5 — 9 aprel kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida Gruziya parlamenti vakillarining ishtirok etishi ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarning xalqaro maydonida mustahkamlanishiga xizmat qilishi aytib o'tildi.

Uchrashuvda, turizm, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi aloqalar ko'lamini tobora kengayib borayotgani xususida ham so'z yuritildi.

Tomonlar hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga kelishib oldilar.

Uchrashuv do'stona va konstruktiv ruhda o'tdi.

«Xalq so'zi».

SO'ZGA SIG'MAS BO'LDI SHARAFING, SHONING...



Nigoh

Bahor... Boboquyoshning zarrin nurlari Pomir-Oloy tog'larining kumush qorlarini eritmoqda. Cho'qqilardan pastga qarab chopqilab tushayotgan katta-kichik jilg'alar Zarafshon daryosiga qo'shilib, o'zining kuch-qudratini namoyon etishga oshiqqanidan bo'lsa kerak, uning o'rta oqimidagi ko'rkam vodiylar bo'yab hayot ulashmakni boshladi. Biroq ko'klam havosi o'zgaruvchan. Ba'zan birdan sovuq zabtiga olib, qor yog'a boshlaydi. Zum o'tmay yana quyosh chiqib, osmon lojuvard tus oladi.

Shunday kezlarda ko'hna Samarqand o'zgarib tarovat kasb etadi. Yengil esgan shabada allaqayerdan yomg'irlarni yetaklab keladi. Bundan butun borliq yanada avjlanadi. Yam-yashil mayсалar abri naysondan mastona-mastona chayqaladi. Shu topda beixtiyor otashqab shoir G'afur G'ulomning dilbar misralari xayolda aylanadi:

Chuldiraydi bog'u bo'ston irmog'i,
Quyosh tomon cho'zilar gul yaprog'i,

Qurt, qumursqa, sa'va, bulbul sayrog'i,
Qo'shiqlarga to'lgan olam quchog'i,
Bahor kuyi, mehnat kuyi boshlandi.

Ammo, insof bilan aytadigan bo'lsak, Samarqandda bahoriy evrilishlar allaqachon boshlangan. Viloyatda kechayotgan bugungi hayotbaxsh o'zgarishlar, hamma sohalardagi yangilanish va bunyodkorliklar, odamlar tafakkuridagi yuksalishlar shuning dalili emasmi?!

Samarqand deganda, avvalo, ko'z oldimizda tarixning turli davrlaridan so'ylaguvchi ko'hna obidalar, sir-sinoatlarga to'liq qadamjolar jonlanadi. Agar bu haqida yozaman desangiz, ko'lami bir maqolaga sig'mas, balki ming doston bo'lajak. Darhaqiqat, bu o'lkada azaldan hayot qaynagan. Balki boshlanishi 3-3,5 ming yilga borib tutashar. O'sha davrlardayoq qadim ajdodlarimiz bu manzillarni makon tutgan.

Balki bunga uning jug'rofiy qulayliklari sabab bo'lgandir. Relyefi, asosan, kenglik bo'yab cho'zilgan va shimoldan Turkiston tog' tizmalarining tarmoqlari — Nurota, Oqtog', janubdan Zarafshon tog' tizmalari bilan o'ralgan bu hudud fusunkor tabiati, unumdor tuprog'i, xush havosi tufayli insonlar uchun yashashga juda qulay hisoblangan.

Hudud foydali qazilmalarga nihoyatda boy. Oltin, kumush, volfram rudasi (Ingichka),

flyuorit, kvarts, ohaktosh, granit, mergel, gips, bentonit gili, abraziv materiallar, mineral bo'yoqlar, marmar (Omonqo'ton, G'ozg'on, Jom), korund konlari (Nurotaning janubi-sharqida), mineral buloqlar necha ming yillardan buyon xalqimizning hayoti farovonligini ta'minlashga hissa qo'shib kelmoqda.

Nabotot va hayvonot olamining turfa naviyu har xil turi uchraydi bu go'zal oshyonda. Bahor kelishi bilan tog' yon bag'irlariga yaqin tekisliklarda qizg'aldoqlar barq uradi, shuvog'u qo'ng'irboshlar chayqalib, chor-atrofni ajib iforga burkaydi. Daryo sohillarini qoplagan jiyda, turang'il, maymunjon, yulg'un to'qayzorlari, dastlarga husn bergan turfa o'simliklar, gullar, chechaklar tulki, chiyabo'ri, jayron, tustovuq, tuvaloq, kaklik kabi turli-tuman jonzotlarga bag'ridan joy berib, ularga rizq ulashadi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Ijtimoiy-siyosiy hayotimizga daxldor masalalarning huquqiy asosi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga daxldor masalalar, shu jumladan, qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish, sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini raqamlashtirish hamda ijro ishi yuritish samaradorligini yanada oshirish, yer osti suv resurslarini muhofaza qilish sohasini takomillashtirish, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qator qonun loyihalari muhokama etildi.

Kafolatlangan sug'urta tizimi joriy etiladi

Dastlab deputatlar "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqdi.

Ushbu qonun bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini sug'urta qoidalariga asosan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda tabiiy ofatlar, yong'in, o'simliklarning kasalliklari va zararkundandalardan talafot ko'rish, chorva hayvonlarining yuqumli kasalliklardan nobud bo'lishi va zaharlanishidan sug'urta qilish hamda yovvoyi hayvonlar tomonidan ekinlarning payhon qilinishi yoki qishloq xo'jaligi hayvonlariga zarar yetkazilishi bo'yicha sug'urta shartnomalarini tuzish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi sug'urtasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini belgilash, sohada tavakkalchiliklarni sug'urtalash jarayonida qatnashuvchi subyektlarning huquq va majburiyatlari aks etyapti.

Loyihada qishloq xo'jaligi sug'urtasi jamg'armasini tashkil qilish, jamg'armaning daromadlari va xarajatlari, sug'urtalanishi lozim bo'lgan tavakkalchiliklar, sug'urta mukofotlari bo'yicha subsidiyalar berishning huquqiy asoslari ham belgilanmoqda.

Majlisda qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlashda normalarni to'g'ri bayon etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda sug'urta imtiyozlarini joriy qilish, qishloq xo'jaligi sug'urtasi sohasida xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, tizimda muvofiqlashtiruvchi davlat organining vazifalarini aniq ko'rsatish masalalariga alohida e'tibor qaratilgani qayd etildi.



Oʻzbekiston Respublikasining

QONUNI

«Kredit axboroti almashinuvi toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Ushbu Qonun bilan «Kredit axboroti almashinuvi toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga jismoniy shaxslarning ular bilan kredit bitimlarini tuzishga doir taqiy belgilashga va uni olib tashlashga boʻlgan huquqlarini, ularni Kredit bitimi tuzish taqiqlangan shaxslar reestriga kiritilish tartibi va shartlarini, shuningdek kredit axborotidan foydalanuvchilarning belgilangan taqiyni buzgan holda kredit bitimini tuzganlik uchun javobgarligi belgilanilishini nazarda tutuvchi oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda.

Bundan tashqari kredit byurolari oʻzlarining faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik talablarini buzganligi uchun Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ularga nisbatan qoʻllaniladigan choralar va sanksiyalar belgilanmoqda.

Mazkur Qonun fuqarolar nomiga ularning xabarisiz kreditlarni berish va taqdim etilgan pul mablagʻlarini oʻzlashtirish hollarining oldini olishga, shuningdek kredit byurolari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

1-modda. Oʻzbekiston Respublikasining 2011 yil 4 oktabrda qabul qilingan «Kredit axboroti almashinuvi toʻgʻrisida»gi OʻRQ–301-sonli Qonuniga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2011 yil, № 10, 271-modda; 2013 yil, № 4, 98-modda; 2015 yil, № 8, 312-modda; 2019 yil, № 3, 166-modda; 2020 yil, № 1, 1, 3-moddalar; 2021 yil, 4-songa ilova, № 10, 968-modda; 2022 yil, № 3, 216-modda, № 4, 340-modda; 2024 yil, № 2, 105-modda) quyidagi oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilsin:

1) **3-modda:**
toʻrtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:
«**kredit axboroti subyekti** – kredit bitimi boʻyicha tegishincha qarz oluvchi (qarzidor), lizing oluvchi, kafil, kafolat beruvchi, garovga qoʻyuvchi va sugʻurta qildiruvchi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs, shuningdek oʻzining kredit bitimi tuzishini taqiqlash yoki bunday taqiyni olib tashlash toʻgʻrisida kredit byurolariga maʼlumotlar kiritish haqida ariza bergan jismoniy shaxs»;

oltinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:
«**kredit axborotidan foydalanuvchi** – kredit bitimi boʻyicha tegishincha kreditor, lizing beruvchi, garovga oluvchi va sugʻurtalovchi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs, shuningdek qonunchilikka muvofiq kredit axborotidan foydalanish vakolatiga ega boʻlgan yuridik shaxs»;

quyidagi mazmundagi **yettinchi xatboshi** bilan toʻldirilsin:
«**kredit bitimi tuzishi taqiqlangan shaxslar reestri** – kredit bitimi tuzishi taqiqlangan jismoniy shaxslar toʻgʻrisidagi axborotni oʻz ichiga olgan va kredit byurolari tomonidan yuritiladigan yagona maʼlumotlar bazasi»;

2) **4-modda:**
quyidagi mazmundagi **beshinch xatboshi** bilan toʻldirilsin:
«kredit bitimi tuzishi taqiqlangan shaxslar reestrida jismoniy shaxsning kredit bitimi tuzishi taqiyni mavjudligi haqidagi yoki bunday taqiyni olib tashlanganligi toʻgʻrisidagi»;

beshinch xatboshisi oltinchi xatboshi deb hisoblansin;
3) **5-moddaning ikkinchi qismi:**
quyidagi mazmundagi **beshinch xatboshi** bilan toʻldirilsin:
«jismoniy shaxsning kredit bitimi tuzishini taqiqlash yoki bunday taqiyni olib tashlash toʻgʻrisidagi ariza yuborilgan sana va vaqt, taqiyn belgilangan yoki olib tashlangan sana va taqiyn shartlari haqidagi»;

beshinch xatboshisi oltinchi xatboshi deb hisoblansin;
4) **7-modda:**
quyidagi mazmundagi **ikkinchi qism** bilan toʻldirilsin:
«Kredit byurosi ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori ikki milliard soʻmni tashkil etishi kerak»;

ikkinchi – beshinchi qismlari tegishincha **uchinchi – oltinchi qismlar** deb hisoblansin;
toʻrtinchi qismidagi «Kichik tadbirkorlik subyekti boʻlmagan» degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

5) **8-modda ikkinchi qismning:**
ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:
«muassislar umumiy yigʻilishining kredit byurosini tashkil etish toʻgʻrisidagi bayonnomasi yoki yagona muassisning kredit byurosini tashkil etish haqidagi qarori»;

toʻrtinchi xatboshisi «ustav fondini» degan soʻzdan keyin («muassisi») degan soʻz bilan toʻldirilsin;

oltinchi xatboshisi «ustav fondi» degan soʻzlardan keyin («ustav kapitali») degan soʻzlar bilan toʻldirilsin;

6) **12-modda:**
birinchi qismning toʻqqizinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:
«qonunchilik talablarini buzganlik uchun kredit byurolariga nisbatan choralar va sanksiyalar qoʻllaydi»;

quyidagi mazmundagi **uchinchi qism** bilan toʻldirilsin:
«Kredit bitimini tuzishi taqiqlangan shaxslarning oʻzaro muvofiqlashtirilgan reestrini kredit byurolari tomonidan yuritish tartibini Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilaydi»;

7) quyidagi mazmundagi **12¹-modda** bilan toʻldirilsin:

«12¹-modda. Kredit byurolariga nisbatan qoʻllaniladigan choralar va sanksiyalar

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki quyidagi qoidabuzarliklar sodir etilganligi uchun kredit byurolariga nisbatan choralar va sanksiyalar qoʻllaydi:

kredit axboroti almashinuvi toʻgʻrisidagi va kredit byurolari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik talablariga rioya etmaganlik;
kredit byurolari xizmatlari isteʼmolchilarning huquqlarini buzganlik;
litsenziya qalbakli hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlanganligi.

Ushbu moddaning birinchi qismida koʻrsatilgan qoidabuzarliklar aniqlanganda Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki quyidagi choralar va sanksiyalarni qoʻllashga haqli:

kredit byurolariga ularning faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish toʻgʻrisida, shu jumladan kredit byurolari xizmatlari

isteʼmolchilarning huquqlari buzilishiga olib keluvchi sabablarni bartaraf etish haqida bajarilishi majburiy boʻlgan koʻrsatmalar yuborish;

bazaviy hisoblash miqdorining besh ming baravarigacha boʻlgan miqdordagi jarima undirish.
Choralar va sanksiyalarni qoʻllashda Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki quyidagilarni hisobga oladi:
qoidabuzarliklarning xususiyatini, miqyosini va oqibatlarini;
qoidabuzarliklarning tizimligi va davomiyligini;
qoʻllaniladigan choralar va (yoki) sanksiyalar natijasida vaziyatni oʻzgartirish imkoniyatini;

aniqlangan qoidabuzarliklarning yuzaga kelishiga olib kelgan sabablarni;
ilgari qoʻllanilgan choralar va sanksiyalarning samaradorligini (natijadorligini);

8) **14-moddaning:**
birinchi qismi quyidagi mazmundagi **toʻqqizinchi xatboshi** bilan toʻldirilsin:

«kredit bitimi tuzishi taqiqlangan shaxslar reestrida jismoniy shaxsning mavjudligi yoki mavjud emasligi toʻgʻrisidagi axborotni kredit axboroti subyektlariga va kredit axborotidan foydalanuvchilarga ularning soʻrovlariga asosan berish»;

toʻqqizinchi va oʻninchi xatboshilari tegishincha **oʻninchi va oʻn birinchi xatboshilar** deb hisoblansin;

9) **16-moddaning ikkinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Donunchilikka muvofiq taqdim etilishiga ruxsat berilgan axborotni: banklar va nobank kredit tashkilotlari, shuningdek mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi toʻlov tashkilotlari – Kredit axborotining davlat reestriga va kredit byurolariga;

lizing, sugʻurta tashkilotlari, tovar isteʼmol kreditlarini beruvchi tashkilotlar – kredit byurolariga taqdim etishi shart»;

10) quyidagi mazmundagi **16¹-modda** bilan toʻldirilsin:

«16¹-modda. Jismoniy shaxslar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni kredit bitimi tuzishi kiritish

Jismoniy shaxs oʻzining ishtirokisiz yoki xabarisiz kredit bitimi rasmiylashtirilishining oldini olish uchun oʻzi bilan kredit bitimini tuzishni kredit byurosiga ariza kiritish orqali taqiqlashi mumkin.

Kredit bitimini tuzishni taqiqlash yoki bunday taqiyni olib tashlash toʻgʻrisidagi ariza Oʻzbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron shaklda, davlat xizmatlari markazlari yoki kredit byurolari orqali yozma yoki elektron shaklda murojaat qilish asosida beriladi.

Kredit bitimini tuzishni taqiqlash yoki bunday taqiyni olib tashlash toʻgʻrisidagi ariza olingan paytdan eʼtiboran kredit byurosi tomonidan darhol kredit bitimi tuzishi taqiqlangan shaxslar reestriga kiritiladi.

Kredit bitimini tuzishni taqiqlash yoki bunday taqiyni olib tashlash ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bunda mazkur xizmatlar Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda bepul asosda koʻrsatiladi.

Jismoniy shaxslarning kredit bitimini tuzishini taqiqlash toʻgʻrisidagi

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I**8 MART – XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI MUNOSABATI BILAN MUKOFOTLASH TOʻGʻRISIDA**

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Sultonova Xubon Toyirovna – Buxoro tumanidagi «Qavola Mahmud» mahalla fuqarolar yigʻinining «Oqila ayollar» harakati yetakchisi, Buxoro viloyati

Tojibayeva Sanobarxon Uktamovna – Chust tumanidagi «Chust Oʻtkamjon servis» masʼuliyati cheklangan jamiyati rahbari, Namangan viloyati

Tursunkulova Djamilya Shamsiyevna – Oʻzbekiston metallurgiya kombinati) aksiyadorlik jamiyatining zoldir prokattash boʻlinmasi kran mashinisti, Toshkent viloyati

Shomuratova Oygul Jabborovna – Termiz tumani obodonlashtirish boshqarmasi gul yetishtiruvchisi, Surxondaryo viloyati

Elboyeva Klara Choʻliyevna – Nishon tumanidagi «Nishon qorakoʻchilik» masʼuliyati cheklangan jamiyati bosh choʻponi, Qashqadaryo viloyati

Yuldashova Mehri Artiqovna – Dehqonobod tumani hokimining oʻrinbosari – oila va xotin-qizlar boʻlimi boshligʻi, Qashqadaryo viloyati

II darajali «Sogʻlom avlod uchun» ordeni bilan

Adxamjonova Mavludaxon Xamzayevna – Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qoʻmitasi aʼzosi

Axmədova Soraxon Tolipjanovna – Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining maʼmuriy huquq kafedrasini professori

Kamolova Istat Shukurovna – Gʻijduvon tumani hokimining oʻrinbosari – oila va xotin-qizlar boʻlimi boshligʻi, Buxoro viloyati

Negmatova Xalima Utabovna – Jizzax shahar hokimining oʻrinbosari – oila va xotin-qizlar boʻlimi boshligʻi, Jizzax viloyati

Saidova Dilfuza Eshkulovna – Jizzax shahridagi 22-ixtisoslashtirilgan umumiy oʻrta taʼlim maktabi direktori, Jizzax viloyati

Soliyeva Uktamxon Qozoqovna – Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi oʻqituvchisi, shoira, Fargʻona viloyati

Sultanova Dilshoda Namazovna – Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining sanʼat kafedrasini professori, Samarqand viloyati

Tojibayeva Nargiza Keldibekovna – Sirdaryo viloyati hokimining oʻrinbosari – oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshligʻi

Xilvatullayeva Zaripa Abdunazarovna – Piskent tumani hokimining oʻrinbosari – oila va xotin-qizlar boʻlimi boshligʻi, Toshkent viloyati

Xusenova Nasiba Ismatovna – Karmana tumani bosh imom-xatibining xotin-qizlar masalalari boʻyicha yordamchisi, bosh ofitoyisi, Navoiy viloyati

II darajali «Salomatlik» ordeni bilan

Abduraxmanova Faridaxon Nasirdinovna – Andijon viloyati bolalar koʻp tarmoqli tibbiyot markazining anesteziolog-reanimatologi

Lyaksheva Galina Petrovna – Tibbiyot bosh boshqarmasining 1-Markaziy konsultativ-diagnostik poliklinikasi hudud hamshirasi

«Sogʻlom turmush» medali bilan

Allayeva Dilmuza Mirjalilovna – Yuqori Chirchiq tumanidagi 7-umumiy oʻrta taʼlim maktabining rus tili fani oʻqituvchisi, marafon yuguruvchisi, Toshkent viloyati

Ismoilova Dildora Oʻtkamovna – Qoʻshkoʻpir tumanidagi «Sherzodbek shifo klinikasi» oilaviy korxonasi rahbari, Xorazm viloyati

Polvonova Luftinis Bobosharifovna – Rishon tumanidagi «Choʻngʻara Zioli» oilaviy shifokorlik punkti doʻyasi, Fargʻona viloyati

«Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan

Tursunova Navbaxor Eshmurodovna – Jomboy tumanlararo iqtisodiy sudiyning raisi, Samarqand viloyati

Xayitova Sainora Nomozboyevna – Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Yakkasaroy tumani qoʻriqlash boʻlimi guruhi komandiri, Toshkent shahri

«Kelajak bunyodkori» medali bilan

Yoqubjonova Shaxnoza Toʻlqinjon qizi – Gnesin nomidagi Rossiya musiqa akademiyasi magistranti
Fayzullayeva Madina Xikmatilayevna – «Oʻzbekkonsert» davlat muassasasi xonandasi

«Shuhrat» medali bilan

Abduvaliyeva Sanobar Sultonovna – «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyatining Angren kon boshqarmasi «Koʻchbuloq» shaxtasi kompressor qurilmalari mashinisti, Toshkent viloyati

Abdullayeva Ozoda Safibullayevna – Namangan muhandislik-qurilish institutining sanoatni axborotlashtirish fakulteti dekani, Namangan viloyati

Abdusalomova Farogʻat Sunnatulla qizi – Oʻzbekiston davlat simfonik orkestri xor jamoasi rahbari

Azizova Gulbaxor Nazrullayevna – Mirzo Ulugʻbek tumanidagi «Bahor Deco» masʼuliyati cheklangan jamiyati rahbari, Toshkent shahri

Aitbayeva Zamira Joldashovna – Nukus shahridagi «Nauqan bagʻ» mahalla fuqarolar yigʻini raisi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi

Akramova Mashxura Zafarjon qizi – Quvasoy shahridagi «Ellycardin Tekstil» masʼuliyati cheklangan jamiyati direktori, Fargʻona viloyati

Aripova Maktuba Kabulovna – Uchtepa tumani hokimining oʻrinbosari – oila va xotin-qizlar boʻlimi boshligʻi, Toshkent shahri

Bobomurotova Gulrux Umarovna – Nurota tumani hokimining oʻrinbosari – oila va xotin-qizlar boʻlimi boshligʻi, Navoiy viloyati

Boyeva Fotima Saloxiddinovna – Parkent tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor, Toshkent viloyati

Dexkanova Nargiza Akbarovna – Andijon shahar hokimining oʻrinbosari – oila va xotin-qizlar boʻlimi boshligʻi, Andijon viloyati

Yoruklova Marziya Fayziyevna – Paxtachi tumani «Urganji» mahalla fuqarolar yigʻinidagi kutubxona rahbari, Samarqand viloyati

Joʻrayeva Ozoda Hasanovna – Denov tumanidagi 1-oilaviy bolalar uyi rahbari, Surxondaryo viloyati

Yoʻldasheva Mahliyo Norpoʻlatovna – Gʻuzor tumanidagi hunarmand-tikuvchi, Qashqadaryo viloyati

Kamoldinova Mukaraxon Usmanovna – Andijon shahridagi «Auto Rubber» masʼuliyati cheklangan jamiyatining yigʻuv liniyasi ustasi, Andijon viloyati

Karimova Shahnoza Yandashovna – Navoiy shahridagi «Baraka Non Navoiy» masʼuliyati cheklangan jamiyati rahbari, Navoiy viloyati

Karshibayeva Gulchexra Shodmonkulovna – Boyovut tumanidagi «Bolgʻali Qilich aka» fermer xoʻjaligi boshligʻi, Sirdaryo viloyati

arizalari roʻyxati kredit bitimi tuzishi taqiqlangan shaxslar reestrida kredit byurolari tomonidan yuritiladi.

Kredit bitimi tuzishi taqiqlangan shaxslar reestridan kredit bitimini tuzish taqiyni mavjudligi yoki bunday taqiyni olib tashlanganligi toʻgʻrisidagi axborotni olmasdan turib kredit bitimini tuzish taqiqlanadi. Bunda banklar yoki nobank kredit tashkilotlari yoxud mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi toʻlov tashkilotlari jismoniy shaxsning ishtirokisiz yoki xabarisiz amalga oshirilgan kredit bitimidan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uchun javobgar boʻladi.

Kredit axborotidan foydalanuvchilar jismoniy shaxslar toʻgʻrisidagi axborotni kredit bitimi tuzishi taqiqlangan shaxslar reestridan bepul asosda oladi»;

11) **17-modda birinchi qismning ikkinchi xatboshisidagi** «Yuridik shaxslarning davlat reestriga va Yakka tartibdagi tadbirkorlarning davlat reestriga» degan soʻzlar «Tadbirkorlik subyektlarining yagona davlat reestriga» degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

12) **22-moddaning birinchi qismi:**
sakkizinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:
«oʻzi haqidagi kredit hisobotining taqdim etilishiga rozilik berishni rad etish yoki uning kredit byurolari tomonidan taqdim etilishini taqiqlash (taqiyni olib tashlash);»

quyidagi mazmundagi **oʻninchi xatboshi** bilan toʻldirilsin:
«kredit bitimini tuzishni taqiqlash yoki bunday taqiyni olib tashlash toʻgʻrisidagi ariza bilan belgilangan tartibda murojaat etish»;

oʻninchi xatboshisi oʻn birinchi xatboshi deb hisoblansin;

13) **24-moddaning birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:
«Kredit axborotini taqdim etish va uning almashinuvi faqat kredit bitimini tuzish, oʻzgartirish hamda kredit bitimining ijrosini monitoring qilishdagi tavakkalchilikni baholash maqsadida, shu jumladan kredit axboroti subyektlarini reyting asosida baholash orqali, shuningdek qonunchilikda belgilangan boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi».

2-modda. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi oʻrtasida tushuntirilishini taʼminlasin.

3-modda. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin; respublika jiro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid boʻlgan oʻz normativ-huquqiy hujjatlarini qayta koʻrib chiqishlari va bekor qilishlarini taʼminlasin.

4-modda. Ushbu Qonun rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran uch oy oʻtgach kuchga kiradi.
Ushbu Qonun 1-moddasi 7-bandining toʻqqizinchi xatboshisi 2026 yil 1 iyuldan eʼtiboran amalga kiritiladi.

Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**
Toshkent shahri,
2025 yil 4 mart
№ OʻRQ–1043

GENDER TENGLIK BORASIDAGI OʻZBEKISTON TAJRIBASI EʼTIROF ETILDI

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi raisi O. Qozixonova Latviya Respublikasining mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi Reynis Troksha bilan uchrashdi.

Muloqot

Unda xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, gender zoʻravonlikka qarshi kurashish sohaslarida milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish, tadqiqotlar

oʻtkazish, mazkur yoʻnalishda tegishli tashkilot hamda idoralar bilan muzokaralar oʻtkazish masalalari muhokama etildi. Gender tenglikni taʼminlash, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini yanada kengaytirish boʻyicha Oʻzbekiston tajribasi tahsinga sazovor ekani taʼkidlandi.

Latviya elchisi xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ular uchun oʻquv kurslari tashkil qilish, gender tahlii oʻtkazish, statistik maʼlumotlarni toʻplash, taʼziy va zoʻravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar bilan ishlash boʻyicha oʻzaro tajriba almashishga tayyor ekanini bildirdi.
Uchrashuv yakunida muhokama etilgan masalalar yuzasidan yaqin hamkorlikni yoʻlga qoʻyish boʻyicha kelishuvga erishildi.

«Xalq soʻzi».

Senator va hayot**HECH KIM EʼTIBORDAN CHETDA QOLMAYDI**

Konstitutsiyaviy islohotlar doirasida mahkumlarining huquq va erkinliklarini taʼminlash, shaʼni va qadr-qimmatiga hurmat bilan yondashish masalalariga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Shu maqsadda Toshkent viloyatining Zangiota tumanida joylashgan jazoni ijro etish koloniyasida mahkumalar ayollar uchun chuqurlashtirilgan tibbiy koʻrik tashkil qilindi. Tadbir parlament yuqori palatasi, Oliy Majlisning Inson huquqlari boʻyicha vakili (ombudsman), Sogʻliqni saqlash vazirligi, Oila va

xotin-qizlar qoʻmitasi hamkorligida oʻtkazildi.

Tibbiy koʻrik doirasida mahkumalar xirurg, travmatolog, ginekolog, mammolog, okulist, nevropatolog kabi malakali mutaxassislar tomonidan tekshiruvdan oʻtkazildi. Zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlangan maxsus mobil tibbiy avtobus,

rentgen apparati va ijtimoiy dorixona xizmatlari tashkil etildi.

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasi raisi A. Eshmuratov mahkumalar bilan uchrashib, muammo va takliflarini eshitdi. Mazkur tibbiy koʻrik ularning huquqlar



SO'ZGA SIG'MAS BO'LDI SHARAFING, SHONING...

«Ajab orasta shahredur...»

Shubhasiz, vohaning ko'ru jamoli va dunyoni tutgan ovozi Samarqand shahrining shon-shuhrati bilan bog'liq. O'tmishda bu kent qanchalik shuhrat qozongan bo'lsa, bugungi davrgi undan ziyoda bo'lsa bor, ammo kam emas.

Bilasiz, dunyoda "Boqiy shahar" degan ulug' nomga sazovor bo'lgan kentlar uchun ham emas. Ko'ina va hamisha navqiron Samarqand qadim tarixi, insoniyat tamaddunida tutgan beqiyos o'rni mana shu yuksak maqom bilan sharafangan. Quvonarlisi, shu martabani bugun ham mahkam tutib turibdi.

Go'zal tabiati, mo'tadil iqlimi, qulay jug'rofiy joylashuvi, mehnatkash va mehdariyo xalqi bilan ne-ne saltanatlarga poytaxt bo'lmadi bu go'zal kent. Shu bois ham davrgi yetti iqimga ketgan bu shahar haqida turli afsonalar yaratilgan. Necha avlodlar shu asotirlarni eshitib ulg'aydi. Siz bilan biz ham ularning anchasini eshitganmiz, albatta.

Hatto antik davr tarixchilari asarlarida ham ushbu shahar haqidagi ma'lumotlar uchraydi. Masalan, uning dastlabki nomlaridan biri sifatida "Marokanda" atamasi keltirilgan. Bu "Samarqand" istilohining yunoncha talqini ekanini barchamiz yaxshi bilamiz. Zotan, shahar hududida olib borilgan arxeologik qazishmalardan ma'lum bo'lganidek, yuqori paleolit davrida ham bu yerda odamlar yashagan.

Asrlar davomida ushbu oshyonda qanchadan-qancha obidalar, qo'rg'onlar, ibodatxonalar barpo bo'lmadi, deysiz? Afsuski, ularning ko'pi dushmanlar tomonidan vayron etilib, tuproqqa qorishirildi. Faqat ayrimlariga ulug' ajdodlarimizning yuksak aql-zakovati, betimsol bunyodkorlik salohiyati mahsuli sifatida bugungi kungacha saqlatib to'kib turibdi. Shuning uchun Samarqandning har qism tuprog'iga ulug' ajdodlarimizning xoki, har qancha yerida muborak izlari, samoviy obidalar g'ishtlarida, niliy gumbazlarida ko'z nuri, qalb qo'ri mujassam, desak, mubolag'a emas.

Sohibqiron Amir Temur Samarqandni o'zi barpo etgan markazlashgan davlatning poytaxti sifatida tanlaganida shu jihatlarni hisobga olgan aniq. Zotan, qadimdan madaniyat va ma'rifat markazi bo'lib kelgan bu keng saltanatning qudratiga, obro'-e'tiboriga g'oyat mos edi. Temur va temuriylar bu go'zal shahri azimini yanada jozibali ma'voga aylantirdi. Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida Samarqand ta'lim, ilm-fan, xususan, falakiyot kuchli taraqqiy etgan shahar o'laroq olamga nom chiqardi.

O'z davrida Alisher Navoiydek buyuk so'z san'atkori, atqoli davlat arbobining Samarqandda ta'lim olgani uning naqadar yuksak mavqye kasb etganidan dalolat beradi.

Bir necha ming yillar osha Samarqandning tarifi tasvifi dillardan-dillarga, tillardan-tillarga o'tib, olamiro shon-shuhrat qozondi. Natijada unga "Yer yuzimning saygali", "Nur taralib turuvchi nuqta", "Dunyo tamaddunining gavhari", "Boqiy shahar", deya ulug' tarifi berildi. Ne-ne shoirlar uning ko'ru jamoliga atab she'ru g'azallar, dostonlar bitmadi, deysiz. Butun insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo'shgan olimlar u haqda ilmiy asarlar yaratdi.

Shu tariqa shaharda qurilgan obidalar, orasta bog'lar go'zalligi, ko'ru tarovati davrgi butun olamga keng yoyildi. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da "Rubi maskunda Samarqandcha latif shahar kamroqdur." Samarqand shahri ajab orasta shahredur... deya yozganida zaracha mubolag'a qilganami, shubhasiz.

Bugungi kunda ham bu dilbar ma'vo xususida ash'orlar va ilmiy asarlar yaratilmoqda. Gaping ochig'i, mazkur betakror kent bunga har jihatdan munosibdir.

Tarix va kelajak tutashgan manzil

Buyuk o'tmishdan kuch va ruh olgan Samarqand tarix va kelajak tutashgan manzil sifatida bugun yangi O'zbekistonning gavhari sifatida o'zini namoyon etmoqda. Shahar ham suratdan, ham siyratdan butunlay yangilanyapti. Bunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning hissasi beqiyos. Buni barchamiz ko'ribilib turibmiz.

Oxirgi yetti-sakkiz yilda Samarqand o'z taraqqiyotining mutlaqo yangi davriga qadam qo'ydi. Timsollar tilida aytadigan bo'lsak, u qayta tug'ildi va dunyoga takror yuz ochdi, ya'nikim uzukka dur joylangan kabi bo'ldi.

Viloyatda olib borilayotgan keng ko'lami ishlar va ulkan bunyodkorliklar nafaqat hudud ravnaqini ta'minlash, balki ushbu afsonaviy ma'voning dunyo sahnasidagi tarixiy o'rni va shuhratini qayta tiklash, aholi farovonligiga erishish, yurtdoshlarimiz va sayyohlar uchun barcha zamonaviy infratuzilmani yaratishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Viloyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotidagi yuksalish odamlar turmush tarzida, osoyishtalik, to'kinlikda namoyon bo'lmoqda. Bugun viloyatning Kattaqo'rg'on, Urgut, Bulung'ur, Jomboy, Ishtixon, Narpay, xullas, qaysi hududiga bormang, sanoat keng quloq yozayotganiga guvoh bo'lasiz. Hatto viloyat markazidan eng olib qishloqlarda ham yangi

korxonalar ochilyapti. Xususan, o'tgan yili viloyatga 928,5 mln. dollar miqdorida xorijiy investitsiya mablag'lari jalb etilib, 147 ta loyiha ishga tushirildi. Bundan tashqari, 166 ta qo'shma korxonada ochildi va ularning soni 926 taga yetdi. Endi bu zavod va fabrikalarda minglab samarqandliklar mehnat qilayotganini hisobga oladigan bo'lsak, qanchadan-qancha oilalarga quvonch kirib kelgani, insonlarning orzu-maqsadlari ro'yobga chiqqanini, ertangi kunga ishonchi mustahkamlanganini tasavvur etishimiz qiyin emas.

Viloyatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bugun dunyoni zabt etayotir. Aynan shu yerda tayyorlangan kiyim-kechaklar, mebel va texnikalar, hatto rivojlangan mamlakatlar aholisining xonadonlari to'ridan joy olmoqda.

O'tgan yili viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2,8 mlrd. dollarni tashkil qilgani ham, aslida, shundan darak beradi. Bu ko'rsatkich eksport hajmi 2023 yildagiga nisbatan 127 foizga oshganini ifodalaydi.

Davlatimiz rahbari yaratib bergan imkoniyat va imtiyozlar tufayli viloyat aholisi kichik biznes va tadbirkorlik borasida ham salmoqli yutuq va natijalarga erishmoqda. Ayni paytda viloyatda xususiy sektorning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 73 foizdan oshgani va mehnat bilan band aholining 87 foizdan ziyodi shu tizimda mehnat qilayotgani fikrimizning yaqqol dalilidir.

Yana bir e'tiborli jihat: 2024 yilda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti 6,9 foiz o'sgan. Bu esa hududning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti barqaror tus olganidan darak beradi.

To'ng'illarga ko'chayotgan obodlik

Samarqand viloyati keyingi yillarda tom ma'noda ulkan bunyodkorlik maydoniga aylandi. Bir vaqtlar yozda kavush botar chang, qishda bir qarich loy jin ko'chalar bugun nihoyatda orasta, tekis asfaltlangan, keng va ravon yo'llarga evrilgan. Pana-pastqam uylar o'rnida zamonaviy osmono'par binolar qad rostlamoqda.



Samarqand shahrining bir qancha ko'chalari kesishgan nuqtalarda yer osti yo'llari barpo etildi. Aholini shinam va arzon uy-joy bilan ta'minlash alohida dastur asosida amalga oshirilmoqda. Xususan, "Qorasuv" massividagi 100 ming kishi yashashiga mo'ljallangan ko'p qavatli uylar, "Yangi O'zbekiston" massividagi 1294 kvartirali 36 ta ko'p qavatli imorat allaqachon o'z egalariга topshirildi. Vohada ko'p qavatli uylar qurish izchil davom etmoqda.

Bu bunyodkorliklar qatoriga "Obod qishloq" dasturi doirasida olib borilayotgan ishlarni - qishloq va mahallalar yo'llari tekislanib, asfalt qilinayotgani, xonadonlarga ichimlik suvi tarmoqlari tortilayotgani, tabiiy gaz va elektr energiyasi bilan ta'minlash bo'yicha muammolar hal qilinayotganini ham qo'shsak, bu ezgu ishlarning ko'lami va ahamiyatining zalvari yanada oshadi.

Bugun samarqandliklar bilan suhbatlashsangiz, ularning kayfiyati ko'tarinkiligi, ruhi balandligini darrov sezasiz. Turmush tarzidagi, yon-atrofidagi o'zgarishlar ularning ongu tafakkuriga, hayotiy qarashlariga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini bot-bot tilga olishadi. Aholi bandidligini ta'minlash, kambag'al oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etish, jonajon Vatanimizning rivojiga hissa qo'shman, degan har bir yurtdoshimizga ko'maklashish - qisqacha aytganda, el-yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashash mutasaddi rahbarlardan tortib oddiy odamlargacha hayot tamoyiliga aylanib borayotgani quvonarli, albatta.

Shu ma'noda, kelgusi marralar yanada baland olingan. Jumladan, joriy yilda viloyatda 320 mingta yangi ish o'rni yaratish bo'yicha tasdiqlangan rejaning ijrosini ta'minlash, har bir mahalla drayveridan kelib chiqib shakllantirilgan 45 mingdan ziyod loyihalarni ishga tushirish, "turizm mahallalari" va "turizm qishloqlari" ni ko'paytirish, eksportini 850 mln. dollargacha oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Eng asosiysi, viloyatdagi 16 ta tuman (shahar) va 1126 ta mahallaning har birini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularni kambag'allik, ishsizlik va jinoyatdan xoli hududga aylantirish, "Obod mahalla - obod ko'cha - obod xonadon" mezonlarini hayotga tatbiq etish ishlari aniq dastur hamda mablag' bilan ta'minlangan holda amalga oshirilmoqdaki, bu ko'zlangan natijaga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Muhimi, barcha sohada Prezidentimiz belgilab bergan vazifalar viloyatning rivojlanish strategiyasi o'laroq samarqandliklarni bir maqsad yo'lida jipslashtirib, ularni olg'a harakatlantirmoqda. Bu viloyat yaqin istiqbolda yuksalishning yangi pog'onasiga ko'tarilishiga zamin yaratadi.

Ziyoratchilar talpinadigan maskan

Bugun butun dunyo bu go'zal va betakror manzilga talpinmoqda, desak, sira mubolag'a bo'lmaydi. Haqli savol tug'ildi: nima uchun jahonning turli burchagidan odamlar Samarqandga kelishga, oldin kelganlar uni yana ko'rmoqlikka orzumand?

Buning qator omillari bor. Avvalo, sal ilgariroq aytib o'tilganidek, bu yerdagidek tarixiy obidalar olamdagi kamdan-kam davlatlardagina bor. Ammo hozirgi zamonaviy dunyoda buning o'zi kamilik qiladi.

Unda, sabab nimada? Nazarimda, oxirgi yillarda Samarqandda ro'yobga chiqarilayotgan keng ko'lami bunyodkorliklar, ya'ni sayyohlarga yaratib berilayotgan shart-sharoit va qulayliklar muhim omillardan biri, desak, ayni haqiqat.

Bilasiz, hozirgi zamonaviy dunyoda aeroport va temir yo'l vokzali har bir hududning o'ziga xos "darvozasi" sanaladi. Bu "darvoza" qanchalik orasta va ohanraboli bo'lsa, sayyohlar oqimi shunga mos bo'ladi.

“ Bugun samarqandliklar bilan suhbatlashsangiz, ularning kayfiyati ko'tarinkiligi, ruhi balandligini darrov sezasiz. Turmush tarzidagi, yon-atrofidagi o'zgarishlar ularning ongu tafakkuriga, hayotiy qarashlariga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini bot-bot tilga olishadi. Aholi bandidligini ta'minlash, kambag'al oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etish, jonajon Vatanimizning rivojiga hissa qo'shman, degan har bir yurtdoshimizga ko'maklashish - qisqacha aytganda, el-yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashash mutasaddi rahbarlardan tortib oddiy odamlargacha hayot tamoyiliga aylanib borayotgani quvonarli, albatta. ”

Samarqand aeroportini ko'z oldimizga keltirib ko'raylik. Yuqoridan qarasangiz, u ochiq turgan kitobni yodga soladi. Bunyodkorlar bu bilan nimani ko'zladi ekan?

To'g'ri topdingiz, bu, avvalo, Samarqand dunyodagi barcha insonlarga ochiqligini, unga tashrif buyurganlar bir olam ma'lumot va taassurotlarga ega bo'lishini, agar ko'rgan-kechirganlarini bitishni niyat qilishsa, u katta kitobga aylanishini bildiradi. Biz shunga qo'shimcha sifatida O'zbekistonda olib borilayotgan ochiqlik siyosatining o'ziga xos ifodasi, degan bo'lardik.

Samarqand temir yo'l vokzali va unga olib keluvchi "uchar tulporlar" haqida ham shu singari fikrlarni bildirish mumkin.

Tasavvur qiling: Toshkentdan qadim kentga qarab yo'lga tushdingiz. O'sha "uchar tulporlar" sizni yoki xorijlik sayyohni qisqa fursatda tarixiy go'shaga eltadi. Davomli ma'lum: har qanday chet ellik o'zini betakror etaklar olamida ko'radi.

Xorijiy sayyohlarni yanada kengroq jalb etish maqsadida Samarqandda keng ko'lami bunyodkorlik ishlari olib borilayotganini yana bir bor aytib o'tish joiz. Keyingi yillarda qadim obidalar, madrasayu masjidlar, xonaqohu maqbaralar va boshqa noyob me'morchilik yodgorliklari qayta ta'mirlandi. Jumladan, Registon maydoni, Shohi Zinda, Hazrati Xizr, Ruhobod, Dahbed, Nodir devonbegi ziyoratgohlari, Bibixonim jome masjidi, Ulug'bek rasadxonasi, Xoja Donyol, Xoja Ahror Valiy, Moturidiy, Amir Temur maqbaralari tarixiy qiyofasiga uyg'un ravishda qayta ta'mirdan chiqarildi.

Islom olamining tabarruk ziyoratgohlaridan biri bo'lgan mo'tabar qadamjo - Imom Buxoriy majmuasi butunlay yangi qiyofa kasb etayotir.

Hadis ilmining sultoni sifatida dunyoda nom qozongan Imom Buxoriy bobomiz musulmon olamining faxri hisoblanadi. Buyuk muhaddisning Samarqanddagi tabarruk qabri ziyorat qilish uchun har yili yurtdoshimizning turli burchaklaridan minglab musulmonlar keladi.

Shu bois bu yerda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2019 yilda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi hamda Hadis ilmi maktabi tashkil etildi. Undan keyin ushbu ziyoratgohda Imom Buxoriy majmuasini qaytadan barpo qilish maqsadida yangi loyiha bo'yicha rekonstruksiya ishlari boshlandi. Bu yerda qariyb 10 ming namozxonaga mo'ljallangan masjid, to'rta minora, ayvonlar barpo etildi.

Davlatimiz rahbari bir necha bor Imom Buxoriy majmuasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarni ko'zdan kechirdi. Inshoottalar bezash, hududni obodonlashtirish, ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar hozirlash bo'yicha mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi.

Endilikda bu yerga kelgan mehmonlar yer osti galereyasi orqali Imom Buxoriy qabrinu ziyorat qilish imkoniga ega bo'ladi. Obida devorlari milliy naqshlar, pardozbop toshlar bilan sayqallab chiqildi. Majmuadagi olti asrlik qadimiy chinorlar, qaynab chiqayotgan buloq va hovuz avvalgi holicha saqlab qolindi. Ikki gektardan ziyod maydon ko'kalamzorlashtirildi, uning atrofida xiyobon, mehmonxonalar, ikki yonida madaniy-maishiy inshootlar barpo etildi.

Hozirgi paytda majmuaga ziyoratga kelgan mehmonlar uning mahobati va salobatidan hayratga tushadi. Qalbida faxr-iftixor tuyg'usini his qiladi.

Yangi surat va siyrat kasb etgan Imom Buxoriy majmuasining joriy yilda qayta foydalanishga topshirilishi Samarqandda ziyorat turizmi imkoniyatlari yanada kengayishiga hissa qo'shadi.

Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi

Samarqand Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi"ga aylantirilmoqda. Ana shu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilgan megaloyihalardan biri - davlatimiz rahbari g'oyasi va tashabbusi asosida bunyod etilgan "Buyuk lpak yo'li" xalqaro turizm markazidir.

Bu mutasahham majmuu nafaqat Samarqandning yangi qiyofasini belgilab, turizm imkoniyatlarini yangi bosqichga ko'tardi, balki xalqimizning yuksak aql-zakovati, ulkan bunyodkorlik salohiyati va fidokorona mehnati mahsuloti sifatida Vatanimiz tarixidan joy oldi.

"Buyuk lpak yo'li" xalqaro turizm markazi yiliga 2 million sayyohga xizmat qiladigan ko'p tarmoqli majmuadir. Markaz tarkibida "Boqiy shahar" majmuasi, Kongress-xoll, 8 ta zamonaviy mehmonxona, amfiteatr va ko'plab boshqa obyektlar mavjud.

Ulug'vor va zamonaviy me'moriy ansambl qadimiy hamda navqiron Kentning shonli o'tmishdagi asl o'rnini qayta tiklashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qisqa fursatda majmuu dunyo siyosatchilari maslahatlashadigan, oliy darajadagi uchrashuvlar o'tkaziladigan oshyonga aylandi. Masalan, keyingi ikki yilda bu yerda yigirmadan ortiq xalqaro maqomdagi tadbirlar tashkil etildi. Shanxay hamkorlik tashkiloti sammiti, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar rahbarlari uchrashuvi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki boshqaruv kengashining yillik yig'ilishi hamda Jahon turizm tashkilotining Bosh assambleyasi o'tkazildi. Ushbu nufuzli tadbirlarga kelgan minglab mehmonlar O'zbekistonning qadamjolari, bugungi hayoti bilan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Xususan, ular Samarqandning diqqatga sazovor joylarini ko'zdan kechirib, Yer yuzida shunday jannatnonand o'lka borligini yakdillik bilan e'tirof etishdi.

Davlatimiz rahbarining 2024 yil 29 noyabrda Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirkorlik mahitini yanada rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida hududda turizmni rivojlantirish bo'yicha qator vazifalar belgilangan. Jumladan, joriy yilda Urgut, Toyloq, Samarqand, Pastdarg'om tumanlari va Samarqand shahri hududidan o'tgan Darg'om kanali bo'yida 35,7 kilometr masofada ko'ngil-ochar savdo va xizmat ko'rsatish obyektlaridan iborat turistik marshrut tashkil etiladi.

Shuningdek, viloyat miqyosida turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan o'nlab loyihalar, tadbirlar hayotga tatbiq qilindi. Masalan, Konigil va Tersak mahallalari tajribasi asosida tumanlardagi 14 ta hududga "turizm qishlog'i" maqomi berilishi ko'zda tutilmoqda.

Shunga mos holda tashkil etiladigan mehmon uylari, xostel, kemping, o'tovlar, havo sharlari, paraplan, osma dor yo'li singari zamonaviy turistik xizmatlar, gastronomik maskanlar, savdo nuqtalari hisobiga ikki mingga yaqin yangi ish o'rnlari yaratilishi rejalashtirilgan. Shu asosda Samarqand shahri va qator tumanlarda hudud sharoiti hamda geografik joylashuvidan kelib chiqilgan holda turli yo'nalishlardagi xalqaro festivallar o'tkaziladi.

Narpay kanalining Kattaqo'rg'on shahri hududidan o'tgan qismida investorlar tomonidan yengil konstruksiyali savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini o'zida jamlagan gastronomik ko'prik majmuasi quriladi. Shuningdek, 2026 yilga borib Urgut tumanining Chorchorin tog'li hududida qiymati 25 mln. dollar bo'lgan zamonaviy dor yo'li va turizm majmuasi qurilib, ishga tushiriladi.

Joriy yil kuzda Samarqandda YUNESKO Bosh assambleyasining 43-sessiyasi o'tkaziladi. Ushbu

oliy darajadagi anjumanga dunyoning yuzdan ortiq davlatlardan 6 mingdan ko'proq ishtirokchilar kelishi kutilmoqda.

E'tiborli tomoni shundaki, ushbu nufuzli tadbir shu vaqtga qadar Parijdan boshqa shaharda o'tkazilmagan. Shu nuqtai nazardan, YUNESKO Bosh assambleyasi sessiyasining Samarqandda tashkil etilishi tarixiy voqeelik bo'lib, ko'hna va navqiron kent sayyohlik salohiyatining yana bir xalqaro e'tirofidir.

Uyg'oning va uyg'oting

Qadimdan ta'lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat, ma'rifat beshigi bo'lib kelgan Samarqand bugun mamlakatimizda ushbu sohalarга qaratilayotgan e'tibordan kelib chiqqan holda azaliy o'rmini, tarixiy mavqeyini qayta tiklashi kerak.

Viloyatda hozirgi kunda zamonaviy ta'lim maskanlari, yangi oliyog'ohlar faoliyati yo'lga qo'yilayotgani rost. Endigi masala - jahon talablariga mos kadrlar tayyorlash, zamonamizning ilg'or fikri avlodini kamolga yetkazish, madaniy-ma'naviy, badiiy savia jihatidan viloyatni chinakam lokomotivga aylantirishdir.

Taassufki, viloyatda kitobxonlik, gazetxonlik, adabiyotni yanada rivojlantirish bo'yicha hali qilinadigan ishlar ko'p. Ularni bekamu ko'st amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, ayni sohalarга turli darajadagi rahbarlarning munosabatini o'zgartirish zarur. Badiiy asarlar, gazeta, jurnallar o'qishda, avvalo, rahbarlar o'zlarini faollik ko'rsatishi, boshqalarga o'rnak bo'lishi hamda ularning targ'ibotini yanada kuchaytirishi lozim. Mutolaa madaniyatini yuksaltirish bo'yicha Samarqand tajribasi yaratilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

Zotan, bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan hayotbaxsh islohotlardan o'z vaqtida xabardor bo'lish, ularning o'zak mag'zini chuqur tushunish va ijrosiga sidqidildan hissa qo'shish, qalblarda el-yurt taqdiriga daxldorlik, kuyunchaklik, azmu shijoat, muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalash, shubhasiz, kitobxonlik, gazetxonlik bilan birgalikda kechadi. Mutolaa insonni komillik sari eltuvchi eng to'g'ri va samarali yo'ldir.

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari kitob o'qish va uning targ'ibotida hammaga namuna bo'lib kelyapti. Prezidentimiz xorijiy davlatlar rahbarlariga kitob sovg'a qilishni an'anaga aylantirgan. Ta'lim, ilm-fan, madaniyat, adabiyot masalalari yuzasidan o'tkazgan yig'ilishlarida, yurtimiz ziyolilari, yoshlar bilan uchrashuvlarida kitob va matbuot nasrlari mutolaasi muhimligini, ular targ'ibotini yanada kuchaytirish lozimligini bot-bot ta'kidlaydi.

Bundan har bir yurtdoshimiz, ayniqsa, mutasaddilar zarur xulosalar chiqarishi, faoliyatiga ana shu mezon asosida baho berishi, gapning sirasini aytganda, qalban, ruhan uyg'onishi va boshqalarni ham uyg'otishga intilishi shart. Sohani yanada rivojlantirish borasida qabul qilingan qaror va farmoyishlar, berilgan topshiriq va ko'rsatmalar ijrosini ta'minlash butun mamlakatimiz hududlari qator Samarqand viloyatida ham bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lishi kerak. Binobarin, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, kitob o'qigan, o'zining ustida ishlagan odamda qanot bo'ladi. U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bilimda bo'ladi.

Samarqandda kitobxonlar, gazetxonlar, ilmiy, ilmi insonlar yanada ko'paysa, viloyat yanada taraqqiy etadi, gullab-yashnaydi.

Bugun O'zbekistonda yangi bir uyg'onish, bahoriy yangilanishlar nafasi kezmomqda. Yuqorida aytganimizdek, Samarqandda ham bahor allaqachon o'z sepinu yoyib, mo'jizaviy qudratini namoyon etmoqda. Inshonimiz komilki, bu yerdagi o'sish, o'zgarish boshqa hududlarnikidan butunlay boshqacha, o'ziga xos va azaliy mavqeyiga mos bo'ladi. Samarqand bahori hali husnu malohatini, latofatini, sehu jozibasini yanada to'liqroq, yanada ravshanroq, yanada mukammalroq ko'rsatib, barchani ortidan ergashtiradi.

Holbuki, kelajak poydevoriga tamal toshini qo'yg'an uchinchi Renessans bizni bir maqsad yo'lida jipslashtirishdan tashqari, kelajakka ishonchimizni yanada mustahkamlaydi, yangi kunni umid bilan kutib olishga ruhlantiradi. Inshonch bo'lgan joyda muvaffaqiyatlar, yutuqlar bardavom bo'ladi. O'rta asrlarda dunyo hamjamiyati tomonidan Amir Temur bobomiz va uning saltanati poytaxti - Samarqand Yevropaning xaloskori sifatida nom qozongan bo'lsa, bugungi kunda Prezidentimiz sa'y-harakati bilan dunyo madaniy poytaxti, oliy darajadagi masalalar muhokama etiladigan xalqaro minbarga aylanmoqda.

Temurdek boshlagan boqiy mashvart, So'nmas ezgulikning baxti, shukuhli. Hilpirar totuvlik bayrog'i abad, Tamal toshi erur Samarqand ruhi.

Bu zamin ruhidan kuch olib yana Kundan-kunga sayqal topmoqda jahon. Ezgulik har yerda qilar tantana, Har kimning iqboli bo'lar nurafshon.

So'zga sig'mas bo'ldi sharafig, shoning, Go'zalsan, ko'r'kamsan ta'rifga monand. Sen, axir, ulug' yurt - O'zbekistonning Boshiga tojdirsan, mangu Samarqand!

O'tkir RAHMAT.

Ijtimoiy-siyosiy hayotimizga daxldor masalalarning huquqiy asosi

Deputatlarning ta'kidlashicha, qonun loyihasi qabul qilinishi bilan mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda sug'urtalash tizimi joriy etiladi. Mahsulot yetishtiruvchilarga qulay shart-sharoitlar yaratilishi bilan birga, qishloq xo'jaligi ekinlariga xavf-xatarlar tufayli zarar yetgan hollarda uning o'rmini qoplashning huquqiy asoslari kuchaytiriladi.

Munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Majburiy ijro harakatlarini amalga oshirishda mobil videokuzatuv vositalaridan foydalaniladi
Majlisda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini raqamlashtirish hamda ijro ishi yuritish samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan qonun loyihasi ham muhokamalar markazida bo'ldi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda jamiyat va davlat hayotini keng ko'lami isloh qilish, hudud va qishloq aholisida sud hujjatlari hamda boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini takomillashtirish bo'yicha muvofiq ishlar amalga oshirilmoqda.

Lekin bugungi kunda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda inson omilini kamaytirish, har qanday shaklda sud hujjatlarini ijro etishdan bo'yin tovlashning oldini olish, fuqarolarning minimal turmush darajasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan mol-mulki va pul mablag'larini daxlsizligini kafolatlashga qaratilgan qonun hujjatlarini tizimlashtirish hamda takomillashtirish zarurati yuzaga kelyapti.

Ushbu qonun loyihasi bilan fuqarolardan qarzdorliklari uchun undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan eng kam kafolatlangan daromadni o'rnatish, davlat ijrochilari tomonidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq majburiy ijro harakatlarini amalga oshirishda mobil videokuzatuv vositalaridan foydalanishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Qonun loyihasi sud va boshqa organlar hujjatlari ijrosida inson omilini kamaytirish, majburiy ijro etish tizimini yanada takomillashtirish hamda odil sudlov samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur hujjat deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Yer osti suv resurslari muhofazada

Yer osti suv zaxiralari muhofaza etish sohasini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda muddama-mudda muhokama qilindi.

Mamlakatimizda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvdan oqilona

foydalanilishini ta'minlash, suvlarning zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish hamda uning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, aholining ichimlik suviga bo'lgan ehtiyoji oshayotgani, quduqlarni ruxsatsiz burg'lash va suvdan nazoratsiz, hisobga olmasdan foydalanish holatlari davom etayotgani sababli yer osti suv zaxiralari muhofaza qilish choralarini kuchaytirish zarurati yuzaga kelyapti.

Mazkur qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda Soliq kodekslarga, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonunlarga yer osti suvlariga quduqlarni qonunga xilof ravishda burg'lash va xavfli geologik



jarayonlarning oldini olishga doir ko'rsatmalar talablarini bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilash, hisoblash vositalarini yer osti suvlari olinganda soliqni belgilangan soliq stavkasining oshirilgan miqdorida undirish, yer osti suvlariga quduqlarni burg'lashga doir ruxsatnomani berish tartib-taomilini yer osti suvlariga quduqlarni burg'lash faoliyatiga doir ruxsatnomani berish tartib-taomilini bilan almashirish kabi o'zgartirishlar kiritish nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasi yer osti suvlaridan noqonuniy foydalanish holatlarining oldini olish, burg'lash faoliyatini bilan shug'ullanuvchi tabdirkorlik subyektlari uchun yengilliklar yaratish hamda yer osti suvlaridan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Eslatib o'tish joizki, Qonunchilik palatasining 25 fevral kuni bo'lib o'tgan majlisida deputatlar tomonidan loyiha yuzasidan fikr-mulohazalar, takliflar bildirilib, ayrim me'yorlarni qaytadan ko'rib chiqish va maromiga yetkazish uchun qonun loyihasi mas'ul qo'mitaga qaytarilgan edi. O'tgan davrda mas'ul qo'mita tomonidan barcha taklif atroflicha tahlil

qilinib, asosli deb topilganlari hujjat matnida aks ettirildi. Deputatlar taklifi asosida ayrim me'yorlar yengillashtirildi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Harbiy hisobni yuritish raqamlashtiriladi

Deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat – "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun loyihasi bo'ldi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz mudofaasi

etish tartibini joriy qilishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritilmoqda. Qonun loyihasi harbiy hisobni yuritish tizimini raqamlashtirish orqali hisobga olish hamda tahlil qilishda qulay imkoniyatlarni yaratish, fuqarolar sarson bo'lishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi ta'minlanadi

Majlisda "Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ta'kidlab o'tilganidek, amaldagi "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun ushbu yo'nalishdagi zamonaviy talablarga, JSTning sanitariya-fitosanitariya choralarini qo'llash to'g'risidagi kelishuvi tamoyillariga hamda Alimentarius kodeksi standartlariga javob bermaydi. Qolaversa, mazkur qonunda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda qo'llaniladigan xalqaro tamoyillar, standartlar va amaliyotlar aks ettirilmagan hamda vakolatli davlat organlarining vazifalari aniq belgilanmagan.

6 ta bob, 47 ta maddadan iborat ushbu qonun loyihasi davlat organlarining oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi sohasidagi vakolatlari aniq ko'rsatilmoqda, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashning asosiy tamoyillari belgilanmoqda. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi sohasidagi sanitariya choralarini, qoida va normalarini ishlab chiqish hamda qo'llash tartibi JST bitimi talablari bilan uyg'unlashtirilyapti. Oziq-ovqat mahsulotlari va ozuqaning xavfsizligiga qo'yiladigan umumiy talablar, oziq-ovqat biznesi operatorlarining huquqlari va majburiyatlari nazarda tutilyapti.

Bundan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlarining xatarlar tahlili va kritik nazorat nuqtalari tizimi asosida doimiy tartiblarni ishlab chiqish, joriy qilish va qo'llashga qo'yiladigan talablar o'z aksini topmoqda.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan aniqlashtiruvchi savollar berildi, ayrim takliflar ilgari surildi.

Qonun tashabbuskorlari deputatlar savollariga javob qaytarib, o'rtaga tashlangan takliflar loyiha ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida atroflicha ko'rib chiqilishini aytib o'tdi.

Qonun loyihasi qabul qilinishi oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, sohada davlat boshqaruvi va nazorati mexanizmlarini takomillashtirish, vakolatli davlat organlarining vazifalarini aniq belgilash, tizimning investitsiyaviy jolibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

AKT YANGILIKLARI

Vakillarimiz Londonga borishadi

O'zbekiston robototexnika terma jamoasi yana bir bor o'zining dunyodagi eng kuchli guruhlardan biri ekanini isbotladi.



Gap shundaki, vakillarimiz 21 – 23 fevral kunlari Qozog'istonning Olmota shahrida bo'lib o'tgan "Almaty TechCup 2025 – Central Asia FIRST Championship" bahslarida yorqin g'alabalarga erishib, Londonga o'tkaziladigan "UK FIRST Championship" musobaqasida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi.

E'tiborlisi, mamlakatimiz terma jamoasi bu bellashuvda Markaziy Osiyodan qatnashadigan yagona guruh hisoblanib, ular TATUda tashkil qilingan "FIRST" laboratoriyasida tayyorlik jarayonlarini davom ettirishadi.

Jadal rivojlanayotgan soha

Toshkent yirik IT-forumga mezbonlik qildi. Unda daromadi 500 ming dollardan 5,5 mlrd. dollargacha bo'lgan kompaniyalar vakillari qatnashdi.



O'zbekiston bugun chet el IT kompaniyalari uchun nafaqat jozibali, balki ishonchli bozorga ham aylanmoqda. Soha rivojiga davlat rahbari darajasida e'tibor qaratilayotgani esa xorijiy kompaniyalar oqimini yanada oshirmoqda.

Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra shunday kompaniyalar 2017 yildagiga nisbatan 8,5 barobarga ko'payib, u bugungi kunda mingdan oshdi. Yetti yil avval 12 ta eksportchi kompaniya bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 650 dan ziyodga ko'paydi.

O'zbekistonning bu davrdagi dinamik o'sishini xorijning nufuzli IT kompaniyalari vakillari ham e'tirof etmoqda. Buni poytaxtimiz mezbonligida o'tgan 250 ta kompaniya, 25 ta davlatdan 39 ta xalqaro tashkilot qatnashgan yirik va muhim anjuman – "Offshore Outsourcing Conference" ishtirokchilari fikr-mulohazalaridan ham bilish mumkin.

IT yo'nalishidagi startap g'oyalar tanlovi

Jizzaxda IT yo'nalishidagi startap g'oyalar tanlovi "IDEATHON – 2025" tashkil etildi.



40 ta jamoa qatnashgan ushbu tadbirda 60 nafar tashabbuskor sun'iy intellekt, IT ta'lim, raqamlashtirish, kibernetika, xizmatlar ko'rsatish, elektron tijorat bozori, ma'lumotlar tahlili (Data analysis), sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi kabi sohalarda zamonaviy, innovatsion yechimlar taklif etuvchi g'oyalarni taqdimot qildi.

Jamoalar mamlakatda texnologiyalar rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan qiziqarli va istiqbolli startaplarni taqdim etdi. Hakamlar hay'ati esa baholashda g'oyalarning dasturiy texnik va innovatsion yangiligi, dolzarbligi, afzalligi, xarajatlar smetasining asoslanganligi hamda g'oyani amalga oshirishning samaradorligi kabi mezonlarga e'tibor qaratdi.

Tadbir yakunida 3 ta g'olib jamoa hamda 3 ta nominatsiya – eng faol, eng yosh va eng innovatsion loyiha egalari tashkilotchilar tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Rahim SHERQULOV («Xalq so'zi»).

TA'LIM, ILM VA AMALIYOT UYG'UNLIGI

Tan olish kerak, shu paytga qadar ishlab chiqarish korxonalarini va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida nomutanosiblik hukmori edi. Eng zarur va zamonaviy mutaxassisliklar uchun kadrlar tayyorlash masalalari hamjihatlikda hal etilmagan. Bitiruvchilar ixtisosligi korxonalar talabiga mos tushmagan. Natijada mahalliy sanoat tarmoqlarida "Tanarx muhandisligi", "Oqiyoslash muhandisligi", "Qayta muhandislik" kabi bilim-ko'nikmalarga ega kadrlarga ehtiyoj ortib boravergan. Mehnat bozori uchun noyob mutaxassislar esa katta mablag' evaziga xorijdan taklif qilingan.

Nuqtai nazar

O'tgan yili davlatimiz rahbari ishtirokida muhandis kadrlarni tayyorlash tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar hamda 2024 yil 2 fevraldagi "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qaroriga ko'ra muhandislik-texnika yo'nalishida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruvi faoliyati tubdan yangilanmoqda. Tarmoq korxonalarining yuqori sifatlil kadrlarga bo'lgan real ehtiyojlari o'rganilib, oliy ta'lim yo'nalishlari va qabul parametrlari bilan moslashtirilmoqda.

Xorijdagi ilg'or tajribalardan kelib chiqib, yangi texnika va texnologiyalarni yaratoladigan muhandis kadrlar Toshkent davlat texnika universitetida tayyorlanmoqda. Amaldagi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv dasturlari dunyo reytingidagi "TOP – 300" talika kirgan xorijiy oliy ta'lim muassasalari va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan xorijiy hamda yurtimizdagi ish beruvchi

yirik korxonalar talablariga muvofiq takomillashtirilmoqda.

Dual shakl afzalligi

Talaba zamonaviy bilimlarni egallashi barobarida ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qilib, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirsa, u har tomonlama yaxshi mutaxassis bo'lib yetishadi. Jahon tajribasidan kelib chiqib, ta'limning ushbu dual shakli yuqori samara bergani uchun ham O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiq etilmoqda.

Muhandislar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalari "tarmoq – korxonalar – oliyog'oh" tizimi yo'lga qo'yilgan. Talaba, o'qituvchi hamda soha mutaxassisi oliyog'ohga birlashtirilgan sanoat tarmog'i yoki tashkilot hamkorligida amaliy ko'nikmalar oladi hamda korxonalarda tashkil etiladigan kafedralarda ilmiy tadqiqot ishlarini bajaradi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari Fanlar akademiyasi tasarrufidagi bir qator institutlar, jumladan, Energetika vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari ilmiy-tadqiqot instituti bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. Sanoat, radiatsiya va yadro

xavfsizligi qo'mitasi, "O'zeltexsanoat" uyushmasi tarkibidagi "Artel electronics manufacturing" MChJ, "Toshkent shahar magistrat elektr tarmoqlari korxonasi" AJ, "Toshkent GESlar kaskadi" unitar korxonasi, "Gidroproyekt" AJ tasarrufidagi Kompleks sinov laboratoriyasi bo'limi, "Artel" kompaniyasi, "Texnopark" MChJ, "O'zbekiston texnologik metallar kombinati" AJ, "UzAuto Motors Powertrain" AJ kabi o'nlab yirik ishlab chiqaruvchi korxonalarda kafedralar filiallari faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu esa talaba va tadqiqotchilarning amaliyotlar, stajirovkalar, darsdan tashqari loyihalar, muammolarning raqamli yechimlari, zamonaviy tadqiqotlar olib borishda mavjud texnologik uskunalaridan faol foydalanishini hisobga amaliy ko'nikmalarini ko'proq egallashiga yordam beradi. Faol talabalar korxonalar tomonidan muntazam rag'batlantirilmoqda. Yana bir e'tiborli jihati, talabalar amaliyoti va bitiruv kursidagi ta'limi hamkor korxonalarda tashkil qilinayotir.

Magistraturada yoshlar ikki yillik amaliy dasturlar bo'yicha zamonaviy ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarida ishlab chiqarish subyektlarini rivojlantirishning innovatsion yechimlari, istiqbolli g'oya va loyihalarni ustida tadqiqotlar olib borishyapti. Ularning aksariyati shu yerning o'zida korxonalar buyurtmasi asosida ish bilan ta'minlanmoqda.

Oliyog'ohimiz Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Italiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi rivojlangan davlatlarning nufuzli texnika universitetlari bilan yaqindan hamkorlik qilib keladi. Xorijlik mutaxassislar dual

ta'lim asosida amalga oshirilayotgan ishlarimizni alohida e'tirof etishyapti.

Tadqiqot va innovatsiya

22 yanvar kuni davlatimiz rahbari tomonidan oliy ta'lim va ilm-fan sohasidagi ustuvor vazifalarga oid taqdimot bilan tanishish jarayonida bu yil yana mingdan ortiq ta'lim dasturlari "TOP – 300" universitet dasturlari asosida takomillashtirilishi, 45 ta ta'lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilishi, "Registrator ofisi" xizmatlari bilan talabalar to'liq qamrab olinishi hamda dual ta'limga yana 50 ming talaba jalb etilishi alohida ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, oliy ta'limda ilmiy salohiyat 55 foizga chiqariladi, xorijda 5 ming nafar pedagogning malakasini oshirish rejalashtirilgan. Ilg'or muhandislik maktablari soni 25 taga yetkazilib, sanoat korxonalarini bilan loyihalarni qiymatini 10 barobar oshirish maqsad qilingan.

Bugungi vazifalardan kelib chiqib, Drezden texnika universiteti, Nagoya universiteti va boshqa chet el oliy ta'lim muassasalari tajribalari asosida mavjud ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari maqbul lashtirilmoqda. Tez kunlarda xalqaro nufuzli oliy ta'lim muassasalari 10 nafar pedagog xodimi ta'lim jarayoniga jalb etiladi. 30 nafar professor-o'qituvchimiz esa "TOP – 1000" talik ro'yxatga kirgan ta'lim muassasalari va ilmiy tekshirish institutlarida malaka oshiradi.

Ilmiy odimlarimiz muntazam ravishda "Scopus", "Web of Science" va boshqa xalqaro jurnallarda dolzarb chiqishlar qiladi. E'tiborlisi, ularning



ТАНЛОВИТА

maqolalari ilmiy jamoatchilik diqqatini tortmoqda.

Universitetimizda ta'lim sifati jahon standartlari va mezonlariga muvofiqligi Germaniyaning "ASIN" tashkiloti tomonidan munosib baholandi. Ya'ni elektr energetikasi va metallurgiya bakalavriatura ta'lim yo'nalishlari, elektr ta'minoti va metallurgiya magistratura mutaxassisliklari besh yil muddatga xalqaro akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tkazildi. Bu oliy ta'lim muassasasida mazkur ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini egallagan bitiruvchilarga berilgan diplomlar dunyoda tan olinishidan dalolat beradi.

Pedagogik jamoamiz hamda ilg'or yoshlar yangi texnologiyalarni yaratishda ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarga asoslanishmoqda. Buning uchun universitetimizda keng imkoniyatlar yaratilgan. Qolaversa, ilmiy-tadqiqot markazlari hamda ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan yangi loyihalarni amalga oshirish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish hamda startap ekotizimlarni yanada rivojlantirishga asos bo'lmoqda.

Muhimi, ushbu sa'y-harakatlarning barchasi ta'limda, imlda va amaliyotda sifat ko'rsatkichlarining yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Orifjon ZARIPOV, Toshkent davlat texnika universiteti prorektori, texnika fanlari doktori, professor.

Nukusda «Innovator, lider ayollar bilan davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish sari» mavzuida seminar o'tkazildi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo
MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT
2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tabog. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.
Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.
TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonalar manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 21.15 Topshirildi – 00.20 1 2 3 4 5 6